

TA'LIM MUASSASALARIDA O'SMIRLARNING DIAGNOSTIK VA KORREKSION FAOLIYATINI TASHKIL ETISH MEKANIZMLARI

Nazarov Odil Omanqulovich – p.f.f.d. (PhD).

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti NTM.

odil.nazarov.89@list.ru

Xuddiyeva Nafisa Husniddinovna

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti 1-bosqich magistranti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Ta'lim muassasalarida o'smirlarning diagnostik va korreksion faoliyatini tashkil etish mexanizmlari ko'rib chiqiladi. Ta'lim jarayonida o'smirlar bilimni baholash, yangi texnologiyalar va didaktik materiallardan va metodlardan samarali foydalanish masalalari tahlil qilinadi. O'quvchilarning rivojlanishidagi zaifliklarni bartaraf etish uchun amalga oshiriladigan o'zgarishlar kiritish. Korreksiya jarayonida yoshlarda jamiyatning shaxsga qo'yadigan axloqiy talablariga muvofiq keladigan xulqiy malaka va odatlarni hosil qilish.

Kalit so'zlar: diagnostika, korreksion faoliyat, pedagog, psixologik, kognitiv rivojlanish, individual yondashuv, interaktiv o'qitish.

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются механизмы организации диагностической и коррекционной деятельности подростковой в образовательных учреждениях. В процессе обучения анализируются вопросы оценки знаний подростков, эффективного использования новых технологий и дидактических материалов и методов. Внесение изменений для преодоления слабых мест в развитии учащихся. В процессе коррекции происходит формирование нравственных навыков и привычек соответствующих моральным требованиям общества.

Ключевые слова: Диагностика, коррекционная деятельность, педагогическое, психологическое, познавательное развитие, индивидуальный

ABSTRACT

This article examines the mechanisms of organizing diagnostic and correctional activities of adolescents in educational institutions. The issues of effective use of new technologies and didactic materials and methods are analyzed in the process of education. Introducing changes that will be carried out to eliminate weaknesses in the process of correction, forming moral skills and habits in young people that are in accordance with the moral values imposed on the individual by the society.

Keywords: *diagnostics, corrective action, pedagogue, psychologist, cognitive development, individual approach, interactive teaching.*

KIRISH

Bugungi kunda pedagogika har tomonlama rivojlangan va komil inson tarbiyalash va voyaga yetkazish masalasini hal qilishga yo'naltirilgan. Yillar davomida shakllangan ta'lim tarbiya, yuksak ong tafakkur, dunyoqarash axloqiy va xulqiy fazilatlar hayotiy tajribaga ega shaxsni tarbiyalashga doir boy an'analarni o'zida mujassamlashtiradi. Ta'lim muassasalarida o'smirlarning diagnostik va korreksion faoliyati bu yosh davri psixologiyasi va pedagogik psixologiya nuqtai nazaridan muhim yo'nalish bo'lib, o'smirlarning psixologik va shaxsiy rivojlanishini aniqlash, shuningdek, yuzaga keladigan muammolarni tuzatishga qaratilgan tizimli jarayondir. Bu faoliyatning asosiy maqsadi o'smirlarning ijtimoiy, hissiy va intellektual rivojlanishida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklarni aniqlash va ularga yordam ko'rsatishdir.

Diagnostika va korreksiyalash faoliyati juda qadimdan o'rganilgan bo'lsa-da "Pedagogik diagnostika va korreksiya" yangi o'quv fan hisoblanadi. Bugungi zamonaviy ta'lim amaliyotida o'zining o'z o'rniga ega bo'lganiga va ko'p vaqt bo'lmaganiga qaramasdan, bu fan ta'lim jaratonida o'z natijasini ko'rsatib kelmoqda. O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimida ham ushbu fanning o'quv fani sifatida o'qitilishi borasida tajribalar to'plangan, ammo "Pedagogik diagnostika va korreksiya" o'quv fanining barcha imkoniyatlaridan halicha to'liq foydalanish bo'yicha amaliy tajribalarga ega emas. Shu boisdan ham respublika ta'lim muassasalarida ushbu fandan samarali foydalanishga jiddiy e'tabor qaratilmoqda.

Diagnostika tushunchasi qadimda ilk bor tibbiyotda qo'llanilgan. Davolash uchun kasallik va uning sabablarini to'g'ri anglash, to'g'ri tashxis qo'yish muhim ekanligini anglashgan. Shunga ko'ra dastlab "diagnostika" tushunchasi negizida kasalliklarni aniqlashda qo'llanadigan metodlar va ulardan samarali foydalanish hisoblangan.

Pedagogik diagnostika rivoji psixologik diagnostika bilan uzviy bog'liq va uning negizida vujudga kelgan. Asrlar davomida olib borilgan tadqiqotlar va g'oyalarga asoslangan holda fan sifatida shakllana boshladi.

Diagnostika turli sohalarda, xususan tibbiyot, texnika, ta'lim va boshqa sohalarda, biror tizimning, holatning yoki jarayonning muammolarini aniqlash, baholash va o'rganish jarayonidir.

Ta'lim sohasida diagnostika o'quvchining bilim ko'nikma va malakalarini baholash, ularning qaysi sohalarda muammolarga duch kelayotganligini aniqlash uchun qo'llaniladi. Bu ta'lim tizimini yaxshilash uchun ma'lumot beradi.

Diagnostika- (yunon tilida “dia”- “shaffof”, “gnosis” –“bilim” degan ma’noni bildiradi)o’rganayotgan obyekt yoki jarayon to’g’risida aniq ma’lumot olishning umumiy vositasi bo’lib xizmat qiladi.

Dignostika-bu o’quvchilarning hozirgi holatini, rivojlantirish,o’ziga xos ehtiyojlarini aniqlashga yordam beradi. Bunda quyidagi usullar qo’llaniladi.

Psixologik va pedagogik tahlil: O’smirlarning o’ziga xos ehtiyojlarini, psixologik xususiyatlarini va rivojlanish darajasini aniqlash uchun Psixologik testlar va anketalar, O’quvchilarning psixologik holati, temperamenti,o’z-o’zini baholash vositalari, intellektual darajasi, ijtimoiy ko’nikmalari va hissiy holatlari tahlil qilinadi.

O’quv natijalari tahlili: O’smirlarning o’qishdagi muvaffaqiyatlari va qiyinchiliklarini kuzatish. Darslar va testlar orqali o’quvchilarning intellektual darajasi va o’zlashtirish darajasi aniqlanadi.

Observatsiya(ko’zdan kechirish):Ta’lim muassasasi pedagoglari va psixologlari tomonidan o’quvchilarni sinfda va sinfdan tashqarida kuzatish orqali ularning hissiy va akademik xulq-atvori, motivatsiyasi va ijtimoiy munosabatlari aniqlanadi.

Korreksion faoliyat diagnostika asosida tuzilgan dastur bo’yicha amalga oshirilad. va o’quvchilarni rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni o’z ichiga oladi. Bu faoliyatni quyidagi shakllarda tashkil etish mumkin:

Induvidual yondashuv: har bir o’quvchiga individual o’quv rejasi tuzish, ularning ehtiyojlari va qobiliyatlariga moslashgan darslar o’tkazish. Bu reja o’quvchilarni o’qitishda psixologik, pedagogik va metodik yondashuvlarni hisobga oladi.

Guruh faoliyatlari va maxsus pedagogik yordam: O’quvchilarga o’quv materiallarini o’zlashtirishda qiyinchiliklar tug’diradigan fanlar bo’yicha qo’shimcha mashg’ulotlar va yordam ko’rsatish. Masalan,qo’shimcha darslar, o’qish va yozishda qiynalayotgan lar uchun maxsus metodikalar qo’llaniladi.

Psixologik yordam: O’quvchilarning hissiy holatini yaxshilash, o’zini hurmat qilish va o’ziga ishonchni oshirish uchun psixologik treninglar, stressni boshqarish usullari va motivatsion qo’llab-quvvatlash usullari dasturlari tashkil etiladi.

Ijtimoiy ko’nikmalarni rivojlantirish: O’smirlarning ijtimoiy muammolarini hal qilish uchun guruhli mashg’ulotlar, konfliktni hal qilish usullari, jamoaviy ishlarni rivojlantirishga qaratilgan faoliyatlar o’tkaziladi.

Emotsional va kognitiv rivojlanish; O’smirlarning o’z his-tuyg’ularini anglash, boshqarish va to’g’ri ifodalashga o’rgatish, ularning emotsional intellektini rivojlantirishga qaratilgan psixologik treninglar va mashg’ulotlar o’tkaziladi.

Hamkorlik va qo'llab-quvvatlash: Korreksion faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun o'qituvchilar, psixologlar, ijtimoiy pedagoglar va ota-onalar o'rtasida hamkorlik muhimdir.

O'qituvchilar va psixologlar o'rtasida hamkorlik: Pedagoglar va psixologlar o'rtasidagi samarali hamkorlik o'quvchilarning psixologik xolatini yaxshilash va ta'lim sifatini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Psixologlar o'qituvchilarga o'quvchilarning hissiy va psixologik holatlarini tushunishga yordam beradi.

Ota-onalar bilan aloqa: Ota-onalar bilan muntazam muloqot, o'quvchilarning ta'lim va rivojlanishidagi muammolarni hal qilishda muhim omil hisoblanadi.

Monitoring va baholash: O'quvchilarning rivojlanish jarayonini doimiy ravishda kuzatib borish va baholash kerak. Monitoring jarayoni o'quvchilarning akademik muvaffaqiyatlarini, hissiy holatlari va ijtimoiy ko'nikmalarini baholashni o'z ichiga oladi. Bu jarayon orqali ta'lim muassasasi ularning rivojlanishini yanada yaxshilash uchun kerakli chora-tadbirlarni ko'radi.

Texnologiyalar va innovatsiyalar: Ta'limda zamonaviy innovatsiyalar va metodlardan foydalanish o'quvchilarning motivatsiyasini oshirish va ta'lim jarayonini individualizatsiya qilish imkonini beradi. Onlayn platformalar, interaktiv dasturlar va korreksion faoliyatni samarali tashkil etishda yordam beradi.

Korreksion pedagogika faning asosiy maqsadi anomal bolalarga integratsion, inklyuziv, differensial ta'limni tashkil etish uchun zarur shart-sharoitlarni o'rganish, ulardagi psixofiziologik kamchiliklarni iloji boricha bartaraf etish yoki bilinmaydigan holga keltirish usullarini belgilash va amaliyotda qo'llash yo'llarini tarbiyachi va o'qituvchilarga ko'rsatib berishdan iborat.

Pedagogik lug'atda "korreksiya" tushunchasi (yunoncha "correctio" — tuzatish) pedagogik uslub va tadbirlardan iborat maxsus tizim yordamida anomal bolalarning psixik va jismoniy rivojlanish kamchiliklarini tuzatishdir. Ruhiy va jismoniy kamchiliklari bor bolalar- anomal bolalar deyiladi. Korreksion pedagogika fanining asosiy maqsadi alohida yordamga muhtoj bolalardir.

"Korreksion pedagogika"(Maxsus pedagogika)-rivojlanishda jismoniy yoki psixik kamchilikka ega, maxsus individual tarbiyalash va o'qitish metodlariga asoslangan, imkoniyatlari cheklangan bolalarni rivojlantirish jarayonini boshqarishni o'rganuvchi fan.

Diagnostika korreksion, korreksion-rivojlantiruvchi, korreksionprofilaktik faoliyatlar bilan bir qatorda tarbiyaviy va korreksion-o'qitish, psixokorreksion faoliyatni ham amalga oshirilishini ta'minlaydi.

Korreksion-pedagogik faoliyat maxsus ta'lim dasturiga muvofiq mutaxassislar yordamida anomal o'quvchilarni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirishga

yo‘naltirilgan yaxlit jarayon hisoblanadi. Rivojlanishida kamchiliklar bo‘lgan bolalar maxsus, korreksion-rivojlantiruvchi ta‘lim va tarbiyaga muhtoj bo‘ladilar. Anomal bolalarga yondashishda u yoki bu nuqsonni aniqlash emas, balki uning xususiyati, tuzilishi, bolani tegishli muassasaga joylashtirish, korreksion ishlarni amalga oshirishda alohida ahamiyatga ega bo‘lgan sonli va sifatli ko‘rsatkichlarini aniqlash muhimdir.

Anomal bolalarni maxsus muassasalarda o‘qitish va tarbiyalash, shuningdek, umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida korreksion – rivojlantiruvchi sinflarni tashkil etish masalasi bilan psixologik-tibbiy pedagogik komissiyalar shug‘ullanadilar. Ta‘lim muassasalarida pedagogik jarayonida o‘smirlarning o‘qishi va xulqi bilan bog‘liq salbiy holatlarni bartaraf etishda o‘qituvchi, maktab psixologi va tibbiyot xodimi tomonidan korreksion faoliyat tashkil etiladi. Korreksion faoliyatning asosini korreksiyalash tashkil qiladi. Korreksiyalash (tuzatish)-o‘smirlarda kuzatilayotgan o‘zgarishlarni tashhislash asosida ularni bartaraf qilishga qaratilgan mahsus chora-tadbirlar tizimidir.

XULOSA

O‘smirlarning diagnostik va korreksion faoliyatini tashkil etish mexanizmlari ta‘lim muassasasining barcha xodimlari tomonidan muvofiqlashtirilgan va tizimli tarzda amalga oshirilishi kerak. Bu o‘quvchilarning o‘ziga xos ehtiyojini qondirish, ularning rivojlanishini qo‘llab- quvvatlash va shaxsiy muvaffaqiyatlarga erishishlarida yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdullayeva Sh.A. Pedagogik diagnostika va korrektsiya. –T.: “Fan va texnologiyalar” nashriyot, 2009.
2. Abdullayeva Sh.A, Ro‘ziyeva D.I. Pedagogik diagnostika va korrektsiya. –T.: TDPU nashriyoti, 2018.
3. Rijkov V.N. Didaktika. – M.: Yuniti-dana, 2004.
4. Новоторцева Н.В. Коррекционная педагогика и специальная психология: Словарь. – М.: Педагогика, 1999.
5. Pedagogika nazariyasi va tarixi. 1-qism. Pedagogika nazariyasi / M.X.Toxtaxodjayeva va boshqalar / Prof. M.X.Toxtaxodjayevaning umumiy tahriri ostida. – T.: Iqtisod-moliya, 1996.
6. Новоторцева Н.В. Коррекционная педагогика и специальная психология. Словарь. – М.: Педагогика, 1999.
7. Urishev, B., Artikbekova, F., Kuvvatov, D., Nosirov, F., & Kuvvatov, U. (2021). Trajectory of sediment deposition at the bottom of water intake structures of pumping

stations. In IOP Conference Series: Materials Science and Engineering (Vol. 1030, No. 1, p. 012137). IOP Publishing.

8. Urishev, B., Eshev, S., Nosirov, F., & Kuvatov, U. (2021). A device for reducing the siltation of the front chamber of the pumping station in irrigation systems. In E3S Web of Conferences (Vol. 274, p. 03001). EDP Sciences.

9. Urishev, B., Kuvvatov, D., Doniyorov, T., Kuvatov, U., & Umirov, A. (2023, March). Hydraulic storage of solar energy for supplying pumping units with drip irrigation of plants. In AIP Conference Proceedings (Vol. 2612, No. 1). AIP Publishing.

10. Urishev, B., Doniyorov, T., Kuvatov, U., & Urishova, D. (2023). Determination of optimal parameters of pumping unit of pumped storage power plant operating using solar energy. In E3S Web of Conferences (Vol. 401, p. 01043). EDP Sciences.

11. Urishev, B., Kuvatov, U., & Umirov, A. (2022, July). Determination of main energy parameters and efficiency of local energy system based on renewable energy sources. In IOP Conference Series: Earth and Environmental Science (Vol. 1070, No. 1, p. 012043). IOP Publishing.

12. Уришев, Б. У., Куватов, У. Ж., & Умиров, А. П. (2023). ВЫБОР ПАРАМЕТРОВ ЭНЕРГЕТИЧЕСКОЙ СИСТЕМЫ НА БАЗЕ СОЛНЕЧНОЙ И ВЕТРОЭНЕРГЕТИЧЕСКОЙ УСТАНОВОК И ГИДРАВЛИЧЕСКОГО АККУМУЛИРОВАНИЯ ЭНЕРГИИ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(12), 436-441.

13. Уришев, Б. У., Умиров, А. П., Куватов, У. Ж., & Жомуродова, М. К. (2022). ҚАЙТА ТИКЛАНДИГАН ЭНЕРГИЯ МАНБАЛАРИГА АСОСЛАНГАН ЛОКАЛ ЭНЕРГИЯ ТИЗИМЛАРИНИНГ САМАРАДОРЛИГИНИ АНИҚЛАШ. Muqobil energetika, 1(04), 97-102.